



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024 yil 1-oktabr, № 201 (8824)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



JAHON BANKI BILAN HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-sentyabr kuni Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Antonella Bassanini qabul qildi.



Jahon banki guruhi bilan strategik hamkorlikni yanada kengaytirish hamda ushbu yetakchi xalqaro moliya instituti tomonidan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dasturini qo'llab-

quvvatlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv avvalida vitse-prezident Antonella Bassanini davlatimiz rahbariga Jahon banki prezidenti Ajay Banganing samimiy salomi

va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Suhbat chog'ida ikki tomonlama hamkorlik bugungi yuksak darajaga yetgani va samarali tus olgani chuqur mamnuniyat bilan qayd etildi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz banking eng yirik hamkorlari qatoriga kirdi — loyihalar portfeli bir necha barobar ko'payib, hozirgi kunda 12 milliard dollardan oshdi. Jahon banki iqtisodiyot

tarmoqlari va ijtimoiy soha barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim islohotlarni amalga oshirishda ko'maklashmoqda. Joriy yilning iyul oyidan Toshkent shahrida bankning mintaqaviy vakolatxonasi faoliyat boshladi.

Kambag'allikka qarshi kurashish, davlat korxonalari va banklarini transformatsiya qilish, karbonsizlashtirish, JSTga a'zo bo'lishni qo'llab-quvvatlash va boshqa yo'nalishlar hamkorlikni yanada kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiya, energetika va irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish dasturlariga, xususiylarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, mintaqaviy loyihalarni ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

1-oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

USTOZINI, MUALLIMINI E'ZOZLAGAN JAMIYAT, ALBATTA, RAVNAQ TOPADI, GULLAB-YASHNAYDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-sentyabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishdi, O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi hamda soha vakillari bilan ta'limda amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan muloqot o'tkazdi.

Har bir rivojlangan mamlakat kabi O'zbekiston ham o'z taraqqiyotini ta'limga asoslanib qurmoqda. Bu sohada chuqur islohotlar, katta-katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda eng muhim bo'g'in, yoshlar siyosatining poydevori — boshlang'ich va umumiy ta'limdir.

Yurtimizda 37 mingdan ziyod bolalar bog'chasi, 10 mingdan ortiq maktablar bor. Joylarda yana

yangilari qurilmoqda. Lekin bu maqsadning bir qismi. Eng asosiy masala — ta'lim sifati.

Shu bois pedagog va mutaxassislar malakasi doimiy oshirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 21-iyunda qabul qilingan maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir qarori bu

tizimni yangi bosqichga ko'tardi. Jumladan, shu sohada institut Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga aylantirildi. Mavjud majmua kapital ta'mirlanib, ikkita qo'shimcha bino qurildi, barchasi zamonaviy jihozlandi. Tinglovchilar o'rni ham, yo'nalishlar ham ko'paydi. Eng muhimi, malaka tizimi mazmunan boyidi. Institut bundan 90 yil oldin, 1934-yilda

ochilgan. Shunga bag'ishlab, bu yerda muzey tashkil etilgan. Unda jaded bobolarimizning ilgama e'tibori, Abdulla Avloniy asos solgan maorif tizimi, o'sha davrdagi darsliklar va sahna asarlari, umumiy ta'limning rivojlanish bosqichlari aks etgan. Sun'iy intellekt yordamida ma'rifatparvar jadedlar qiyofasi gavalantirildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

“Aholi bandligi to'g'risida”gi

O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 21-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2024-yil 10-iyulda ma'qullangan

Mamlakatimizda bandlik sohasidagi davlat xizmatlaridan foydalanish uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish, mazkur sohani raqamlashtirish vositasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, mehnat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish, ishsiz shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ularni kasbga o'qitish hamda aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan bir qator islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

(Davomi 4, 5-betlarda).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik sakkizinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT

2024-yil 30-sentyabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik sakkizinchi yalpi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlisi Senatning “YouTube” tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Oliy Majlisi Senatining ellik sakkizinchi yalpi majlisida dastlab “Kreativ iqtisodiyot to'g'risida”gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun bilan kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va ushbu sohada munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilib, unda kreativ iqtisodiyot sohalari sifatida 15 ta yo'nalish belgilanmoqda.

Hujjatda kreativ iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosatining amalga oshirilishi mexanizmi, Vazirlik

Mahkamasining, vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining sohaga oid vakolatlari belgilab qo'yilmoqda.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tashkil etilishi, ushbu kengash jamoatchilik asosida faoliyat olib boradigan maslahat organi hisoblanishi nazarda tutilmoqda.

Qonun asosida kreativ iqtisodiyot uchun zarur infratuzilma yaratish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, kreativ industriyalarning parki va klasterlari, raqamli platformalar, art-rezidensiyalar, kreativ industriya markazlari, innovatsion uskunalar va texnologiyalar, raqamli dasturlar va platformalar yaratilishi hamda kreativ industriyalarning parkining vazifalari belgilanmoqda.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar! Avvalo, siz, azizlarni, yurtimizdagi ta'lim-tarbiya sohasi xodimlarini O'qituvchi va murabbiylar kuni — umumxalq bayrami bilan chin qalbindan muborakbod etib, barchangizga eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Xalqimiz o'zining azmu shijoati, bunyodkorlik salohiyati bilan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan bugungi kunda ushbu ulug' ayyomning mohiyati, muallim va ustozlarning jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati ayniqsa ortib bormoqda.

El-yurtimiz azaldan e'zozlab keladigan o'qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish — biz amalga oshirayotgan davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo'nalishiga aylangani ham shundan dalolat beradi.

Zero, donishmandlar aytganlaridek, mamlakat avvalo yerdan rizq-nasiba undiradigan dehqonlar, xalqni yovdan, turli yovuzliklardan himoya qiladigan askarlar, yosh avlodga ta'lim va tarbiya beradigan fidoyi muallimlarning sa'y-harakati bilan obod va farovon bo'ladi.

Hurmatli vatandoshlar! Keyingi yillarda milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida yurtimizda ta'lim va tarbiya tizimida ham to'liq ma'noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa fursatda sohaga oid ko'plab qonun, Farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchining maqomi alohida belgilab qo'yildi.

Respublikamizda har yili yangi-yangi ta'lim maskanlari barpo etilib, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining zamon talablariga mos yangi avlodi yaratilmoqda.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi dunyodagi ilg'or tajribalar asosida mutlaqo yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Yurtimizdagi bolalar bog'chalari soni 8 barobar oshib, salkam 38 mingtaga, jumladan, nodavlat ta'lim muassasalari 250 tadan 29 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76,4 foizga yetgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Bu haqda so'z yuritganda, oxirgi yetti yilda 5 mingdan ziyod maktabda, shu yilning o'zida esa 608 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarilganini ta'kidlash lozim.

Ik bor 530 ta maktabda inkluziv ta'lim joriy etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 288 ming nafardan ortiq boshlang'ich sinf o'quvchilarining bepul ovqatlanishi yo'lga qo'yildi.

Xususiylarini rivoj uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetgani diqqatga sazovordir.

Biz inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ulkan ishlarimiz doirasida o'qituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash va rag'batlantirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz.

Bugungi kunda o'qituvchilarning ish haqi 2016-yilga nisbatan o'rtacha 2,5-marta, professor-o'qituvchilarning oylik maoshi esa 4,5 karra o'sgani, oktyabr oyidan pedagog xodimlarning ish haqi yana 15 foizga oshirilishi shu boradagi sa'y-harakatlarimiz natijasidir.

Ta'lim sifati yuksaltirish maqsadida pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha yagona va vertikal tizim yaratildi. Joriy yilda hozirga qadar 142 nafar o'qituvchi ilg'or xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi.

Maktab direktori lavozimiga tayinlash tizimi takomillashtirilib, ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi o'rnatildi.

Ta'lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e'tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san'at, sport sohasida yuksak marralarni qo'lga kiritayotgani barchamizni mamnun etmoqda.

O'quvchilarimiz 2010 — 2016-yillarda xalqaro fan olimpiadalarida 73 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, so'nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o'zida esa 122 ta medalga sazovor bo'lgani ham birinchi navbatda sizlarning mashaqqatli mehnatingiz samarasidir.

Bu borada xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarning ustozlarini rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani va shu maqsadda Davlat byudjetidan 6 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixida birinchi marta buyuk allomalarimizga bag'ishlangan xalqaro fan olimpiadalarini o'tkazishni boshladik. Bu esa farzandlarimiz, butun xalqimiz qalbidagi g'urur va iftixor tuyg'usi bilan birga, dunyoda O'zbekistonning ma'rifiy nufuzini ham yuksaltirmoqda.

Maktabda ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarlarini o'rgatish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Joriy o'quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o'quvchiga ikkita xorijiy tili o'qitish, 289 ta maktabda 40 mingdan ortiq o'quvchiga kasb-hunar o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatda yurtimizda 135 ta yangi oliyog'oh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetkazilgani, tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Qadrlil do'stlar! Ko'hna tarix, bugungi hayot tajribasi barcha muammolarning yechimi, savollarning javobi faqat va faqat ta'limda, kamolot va baxt eshiklarining kaliti ta'lim va tarbiyada ekanidan dalolat beradi.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarga yetishda — jonajon O'zbekistonimizni erkin va farovon, har tomonlama obod mamlakatga aylantirishda soha rivojini yangi sifat bosqichiga ko'tarish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sizlar bilan bo'lib o'tgan sarmazmun va samimiy muloqotimizda bu haqda yana bir bor fikr almashib, kelajak rejalarimizni aniq belgilab oldik.

Ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o'qituvchilarimiz ta'lim sohasidagi islohotlarimizda yanada faol ishtirok etib, “Yangi O'zbekiston — ma'rifiy jamiyat” degan oliyanob g'oyamizni amalga oshirishga munosib hissa qo'shasiz.

Hech shubhasiz, biz ta'lim va tarbiya tizimini yanada ravnaq toptirish, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasiga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat beramiz va o'qituvchilikni jamiyatimizda eng obro'li kasblar qatoriga olib chiqamiz.

Muhtaram ustozlar! Mana shu shukuhli ayyomda siz, azizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, ezgu va sharafli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, qadrlil va mehribon ustozlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAYLOV — 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda Tadbirkorlar va Ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nomidan “Barqaror iqtisodiy o'sish orqali har bir inson, oila va jamiyat farovonligiga erishamiz” sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

USTOZINI, MUALLIMINI E'ZOZLAGAN JAMIYAT, ALBATTA, RAVNAQ TOPADI, GULLAB-YASHNAYDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shu yerda qariyb 88 ming kitob fondiga ega kutubxona ham bor. Davlatimiz mahorat ushbu muzey va kutubxonani ko'zdan kechirdi.

Muassasada malaka oshirish va qayta tayyorlashning an'anaviy, muqobil hamda dual shakllari, shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida o'qitish joriy etilgan. Situatson o'quv xonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlaridagi pedagogik mahorat markazlari bilan videoaloqa orqali ulangan. Uzlüksiz kasbiy ta'lim, menejerlik o'quv kurslari, pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifasini berish, maktabgacha va maktab ta'limini boshqarish kabi dasturiy platformalar joriy etilgan. Bu hududlardagi direktor va o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiya va ushblarga tezkor o'qitish imkonini beradi.

Bugungi kunda maktab direktori nafaqat tajribali pedagog, balki yaxshi boshqaruvchi, ma'lum ma'noda strateg ham bo'lishi kerak. Institut o'quv dasturida bunga katta e'tibor qaratilib, direktorlar maktabi tashkil etilgan.

Inklyuziv ta'lim va psixolog xonalarda shu yo'nalishda ishlaydigan defektolog va tarbiyachilar malakasi oshiriladi. Mediastudiyada videodarslar tasvirga olinadi. Shuningdek, institutda konferensiya zali, kompyuter va seminar xonalari, oshxona va sharoitlar bor.

Ma'lumki, bugun mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat qaratilib, maktablar zamonaviy jihoz va o'quv yo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda. Bu o'qituvchilardan shunga moslashishni, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni talab qiladi. "STEM" laboratoriyasi pedagoglarni shu borada qayta tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim talabdan kelib chiqib, institutda o'qish soatlari ko'paytirildi. O'qituvchilarga muosir sharoit yaratish maqsadida yotoqxonaga zamonaviy ta'mirlanib, o'rinlar soni oshirildi.

Prezidentimiz ushbu xonalarda bo'lib, yangi qulaylik va imkoniyatlar bilan tanishdi.

Bu institut kutib o'tiruvchi emas, targ'ibotchi, yetakchi bo'lishi kerak. Hududlardagi o'qituvchi va direktorlarni ko'proq taklif etib, barcha maktablarda sifatini oshirish zarur. Yangi zamon kishisi, kelajagimiz bunyodkorlari maktabda tarbiyalanadi. Ta'limsiz kelajak yo'q, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu yerda dars beradigan o'qituvchi va murabbiylarni xorijda o'qitish, dunyodagi ilg'or tajribalarni uyg'unlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Joriy yilning o'tgan davrida institutda 4 ming 300 nafarga yaqin ta'lim muassasalari rahbarlari malaka oshirdi. Shuningdek, 2 ming nafarga yaqin direktor

va direktorlikka nomzodlar menejerlik kurslarida o'qitildi. "Uzlüksiz kasbiy ta'lim" platformasi orqali darslarda 113 ming nafardan ortiq pedagoglar qatnashdi.

Singapur xalqaro ta'lim tashkiloti tomonidan 100 nafar maktab direktori, 200 nafar matematika va tabiiy fanlar o'qituvchisi qayta tayyorlandi. Institut tuzilmasida Xalqaro tadqiqotlar markazi ham ish boshladi.

Umuman, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog hamda mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirishning uzlüksiz tizimi yo'lga qo'yiladi. 2025-yildan boshlab ular besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda malaka oshiradi. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish soati" hamda "Kasbiy rivojlanish kuni" joriy etiladi. Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajribalar uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq qilinadi.

Shundan so'ng 1-oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tantanalni marosim bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining boshida barcha ta'lim-tarbiya xodimlarini bayram bilan samimiy tabriklab, xalqimizning chuqur hurmat-ehtiromini yetkazdi.

Biz ustozni otadek ulug' deb bilgan, uni hamisha boshiga ko'tarib e'zozlagan buyuk, ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Tariximizdagi qaysi mashhur ajdodimizni olmaylik, ularning barchasi ustozlarga yuksak ehtirom bilan qaraganlariga guvoh bo'lamiz. Ustozini, muallimini e'zozlagan jamiyat, albatta, ravnaq topadi, gullab-yashnaydi. O'qituvchisining qadr-qimmatini baland bo'lgan xalqning obro'-e'tibori yuksak bo'ladi, - dedi davlatimiz rahbari.

Hayotda har bir e'zgulik, har bir kashfiyot va yutuqning zamirida o'qituvchining mehnati, bardoshi va mehruhabbati muajassam ekani ta'kidlandi. - Ta'lim - sohalar ichida eng dolzarbi, maktab - eng muhimi bo'lsa, o'qituvchilik kasblar orasida eng ulug'idir. Shaxsan men o'qituvchi deganda, o'zim uchun aziz va qadrlı bo'lgan zotlarni, yuz-ko'zidan nur yog'ilib turadigan mo'tabar insonlarni tasavvur qilaman. Ular zamonamizning eng ilg'or kishilari, jonkuyar, vatanparvar, xalqparvar insonlardir. Shu sababli xalqimiz o'zining eng katta boyligini - farzandlari tarbiyasini o'qituvchilarga ishonib topshiradi, - deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Ustozlarning donishmandligi, hayot ma'nosini chuqur anglab, odamlarni yaxshilikka va muvaffaqiyatlarga ruhlandırishi qayd etildi.

Insonning ongi, dunyoqarashi o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi. Jamiyat o'zgarmasa, taraqqiyot ham bo'lmaydi. Odamlarning tafakkurini, shu asosda butun jamiyatni kim o'zgartira oladi? Yangi beruniylarni, xorazmiy va farg'oniy larni kim kamolga yetkazadi? Bunday ulug'vor vazifani, tom ma'nodagi tarixiy missiyani ado etishga faqat siz - ustoz va murabbiylar qodirsiz, - dedi Prezident.

Bugun yurtimiz o'g'il-qizlari xalqaro fan olimpiadalarida, sport maydonlarida ulkan marralarni qo'lga kiritayotgani yodga olindi. Bu g'alabalari avvalo ustoz-murabbiylarning fidokorona mehnati samarasi ekani e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 27-sentyabrdagi Farmoniga muvofiq ta'lim-tarbiya tizimiga qo'shgan munosib hissasi, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtodoshlarimiz faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Marosimda ana shu mukofotlar tantanalini ravishda topshirildi.

O'z mehnati bilan qadr topish, el-yurt ardog'ida bo'lish chinakam baxt. Bu, ayniqsa, o'qituvchi va murabbiylarga yarashadi. Qadringiz ham, qaddingiz ham doimo baland bo'lsin, aziz ustozlar, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mukofotlanganlar nomidan so'zga chiqqanlar ta'lim sohasi va muallimlarga e'tibori, kamtarona xizmatlarini yuksak baholagan uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqot qildi.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda ulkan maqsadlar belgilangan. Ularni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bog'liq.

Buning uchun o'qituvchilar huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan himoya qilingan va yetarli ta'minlangan bo'lishi kerak. Shu bois yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchi maqomi alohida mustahkamlab qo'yildi. Bu yil "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Davlatimiz boyligi, birinchi navbatda, yosh avlod tarbiyasiga sarflanmoqda. So'nggi 7 yilda ta'limni rivojlantirishga jami 216 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun byudjetdan 19,5 trillion so'm sarflanib, 6 mingta davlat maktabi va 3,5 mingta bog'cha rekonstruksiya qilindi hamda yangindan qurildi. Maktablarda 800 mingta, bog'chalarda 535 mingta qo'shimcha o'rin yaratildi.

Xususiy ta'limga keng imkoniyatlar yaratilayotgani tufayli xususiy maktablar soni 27 tadan 500 ga yetdi, nodavlat bog'chalar 250 tadan 30 mingtaga ko'paydi.

O'qituvchilarga mahorati va erishgan yutuqlariga qarab to'lanadigan ustamalar soni 3 tadan 17 taga oshirildi. O'z ustida

astoydil ishlagan, xorijiy sertifikat olgan 6 ming o'qituvchi 10 million so'mdan ziyod maosh olmoqda.

14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi faoliyat yo'lga qo'yildi. Ularning dasturlari asosida tabiiy va aniq fanlar bo'yicha zamonaviy darsliklar yaratilmoqda. Prezident maktablaridagi baholash tizimi hozir 500 ta umumta'lim maktabida qo'llanmoqda. Baholashni samarali yo'lga qo'ygan 66 ta maktab jamoasiga 40 foizgacha ustama to'lanmoqda.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni seleksiya yo'li bilan tanlab olish bo'yicha ilgari bo'lmagan yangi tizim yo'lga qo'yildi. Natijada bu yilning o'zida xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilarning 122 ta medalni qo'lga kiritdi.

Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi so'nggi 7 yilda 4 karra oshdi. Bu yil 310 ming nafar yosh talaba bo'ldi. Ularning qariyb yarmi qizlardir.

Muloqotda davlatimiz rahbari ta'lim sifati masalasiga alohida to'xtaldi.

Davlat ta'lim muassasalarida 46 ming nafar, xususiy tashkilotlarda esa 38 ming nafar pedagog 5 yil davomida malaka oshirmagani qayd etildi. Bu yil sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida o'tkazilgan attestatsiya jarayonlarida 21 ming nafar pedagog malaka bo'yicha yetarli ball to'play olmagani. Afsuski, bunday holatlar o'quvchilarning bilimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha 7 ta yo'nalishda vazifalar belgilandi.

Birinchi yo'nalish. Abdulla Avloniy nomidagi institut pedagoglarda kasb mahoratini oshirishga mas'ul bo'ladi. Institutning 12 ta hududiy markazini zamonaviy jiyoqaga keltirish va jihozlash uchun yaqin 3 yilda byudjetdan har yili 50 milliard so'm ajratiladi. Malaka oshirishda vazirlik - malaka oshirish markazi - maktab va bog'chani bog'laydigan vertikal tizim yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, joylarda 1 ming 300 ta tayanch maktab va 200 ta bog'cha tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tashkil etiladi. Buning uchun yetakchi o'qituvchilarning ish haqiga 20 foiz ustama qo'shiladi.

Ikkinchi yo'nalish. Muallimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag'batlantirish davom ettiriladi. Kelgusi o'quv yilidan xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish yo'lga qo'yiladi. Sinovlarda 86 va undan yuqori ball olgan pedagoglar qo'shimcha 70 foiz ustama oladi.

Davlatimiz rahbari "Yil o'qituvchisi" tanlovi o'tkazilib, 208 ta tuman va shahardan g'olib bo'lgan o'qituvchilarga sovg'a sifatida uy-joy berilishi e'lon qildi.

Shuningdek, har yili sanatoriy va dam olish maskanlariga yuboriladigan o'qituvchilar soni 2 barobar oshiriladi.

Bir yil oldin maktab direktorlarini o'qitish tizimi joriy etilgan edi. Bugungi kunda ulardan 1 ming 206 nafari menejerlik sertifikatiga ega bo'ldi. Hozir ana shu direktorlarga o'rtacha 3 million so'm ustama berilmoqda.

Endi bu amaliyot 2025-yil 1-sentyabrdan bog'cha mudiralari ham tatbiq etiladi va ularga har oyda 30 foizgacha qo'shimcha ustama to'lanadi.

Bilimdon va jonkuyar o'qituvchilar xalqning noyob boyligi ekani ta'kidlanib, ular haqida "Ustozga ehtirom" nomli kitob va filmlar yaratish zarurligi aytiladi.

Uchinchi yo'nalish. Aholi o'sishi tufayli yiliga maktablarda 120 mingta, bog'chalarda 30 mingta qo'shimcha o'ringa talab yuzaga kelmoqda.

Kelgusi yili byudjetdan ajratiladigan 3 trillion 200 milliard so'm hisobidan 375 ta maktab va 97 ta bog'cha rekonstruksiya qilinadi va yangilari quriladi.

Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki va OPEK jamg'armasining 50 million dollar mablag'i doirasida kelgusi 4 yilda 200 ta xususiy bog'cha qurilib, 30 mingta o'rin yaratiladi.

Yangi yildan boshlab, xususiy sektorda o'quvchi o'rinlarini ko'paytirish uchun maktab ohadigan tadbirkorlarga 20 milliard so'mgacha kredit ajratiladi. Kredit foizining asosiy stavkadan 1,5 barobar oshgan qismi byudjetdan qoplanadi.

Shuningdek, yangi quriladigan xususiy maktab binolari uchun kommunal xarajatlarning 50 foizi 5 yil muddatgacha byudjetdan to'lab beriladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlar o'z hisobidan maktab qursa, unga ketgan xarajalar foyda solig'idan ikki yil davomida teng ulushlarda chegirib tashlanadi.

To'rtinchi yo'nalish. Ta'limda sifat va raqobatni ta'minlash uchun raqamlashtirish darajasi oshiriladi.

O'tgan 5 yilda 13 ming 500 dan ortiq kompyuter sinfi xonalari 200 mingta zamonaviy kompyuter bilan ta'minlandi. Kelgusi yil yana 2 mingdan ziyod kompyuter sinflari yangilanadi, bunga byudjetdan 400 milliard so'm beriladi.

Ana shu kompyuterlarga elektron ta'lim kontentlari yuklanib, bolalar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyati oshadi. O'quvchilar murakkab konsepsiyalarni oson o'zlashtirish uchun aniq va tabiiy fanlar bo'yicha virtual laboratoriyalar tashkil etiladi. Yangi o'quv yilidan boshlab bunday laboratoriyalar har bir viloyatda 10 tadan maktabda qilinadi.

Shuningdek, maktab tizimida o'qituvchi o'z imkoniyati va yutuqlarini, yangi ishlanmalarini e'lon qilishi uchun yagona onlayn platforma yaratiladi.

Singapurlik 16 nafar ekspert matematika va tabiiy fanlar o'qituvchilarning kasb mahoratini oshiradi. Pedagoglar sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformasida bilimlarini bir yil davomida muntazam sinovdan o'tkazadi.

Xususiy bog'chalardagidek, 6 ming 800 ta davlat bog'chasida ham davomata, to'lovlar, oziq-ovqat xarajatlari shakllantirish to'liq raqamlashtiriladi. Beshinchi yo'nalish. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasi omallashtiriladi.

Bu yo'nalishda yana 1 mingta umumta'lim muassasasida Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablardagi baholash tizimini joriy etish boshlandi. Hukimliklarga ularni ta'mirlash va zarur darajada jihozlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo'lga qo'yish uchun pedagogik ta'lim klasterlari tashkil qilinadi. Bu tajriba-sinov tariqasida dastlab Andijon va Buxoro shaharlarida barpo etiladi.

Oltinchi yo'nalish. Iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish tizimi yangi bosqichga olib chiqiladi. Buning uchun xalqaro darajada fan olimpiadalariga tayyorlash markazi tashkil etiladi.

Rag'batlantiriladigan xalqaro fan olimpiadalarini soni 18 tadan 22 taga yetkaziladi. Bunda nufuzli xalqaro olimpiadada oltin medal olish o'quvchiga 170 million so'm, kumush medalga 102 million so'm, bronza medal uchun 68 million so'm mukofot puli beriladi.

Shu bilan birga, ana shu o'quvchilarning o'qituvchilari 50 milliondan 150 million so'mgacha mukofotlanib, ularga bir yilda 100 foizlik ustama olish imkoni yaratiladi.

Ikkinchi bo'limda xalqaro olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar jamoasi rahbarlarini ham rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Prezident pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi stipendiyaning tashkil etish tashabbusini bildirdi.

Yettinchi yo'nalishda ta'limning ajralmas qismi bo'lgan tarbiya va odoab-xloq masalalariga e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti yangidan tashkil etildi.

Yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar uchun tarbiyaga oid raqamli kontentlar yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, bu borada teatr va kino san'atidan foydalanish, yoshlar ijodini qo'llab-quvvatlash, jismoniy tarbiya va sportni omallashtirish, kitobxonlikni yanada kengaytirish vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida davom etdi. Bu yerga yig'ilgan va hududlar orqali bog'langan pedagoglar fikr va takliflarini aytdi. Prezidentimiz ularni qo'llab-quvvatlab, takliflarini amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV, Ikrom AVVALBOYEV, O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik sakkizinchi yalpi majlisi to'g'risida

A X B O R O T

Shu bilan birga, qonun asosida ichki va tashqi bozorlarda kreativ industriya sohalaridagi loyihalarni yaratish, ishlab chiqarish va ilgari sun'iy bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari tashkil etilishi hamda ushbu jamg'armalar mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari belgilanmoqda.

Kreativ industriyalarning respublika iqtisodiyotiga hissasini aniqlash maqsadida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish hamda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hisobga olish, madaniy merosni asrash qonun darajasida belgilanmoqda.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining Global innovatsiyalar indeksidagi o'rnini oshirishga, kreativ industriya sohasidagi innovatsion g'oyalar va loyihalarni rivojlantirishga, madaniyot va merosni omallashtirishga, xalqaro va ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan kreativ mahsulotlar va xizmatlarni sotish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Senatorlar ushbu qonunning dolzarbligi va zarurligini e'tiborga olib, uni ma'qulladi.

Shuningdek, yalpi majlisda senatorlar "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi qonunni muhokama qildi.

Qonun bilan qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish, kooperativ a'ziligiga qabul qilish, nazorat qilish, tashqi audit, boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish borasidagi, shuningdek, davlat va kooperativlar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinmoqda.

Kooperativ qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshirish uchun yur usuliga hamda jismoniy va

yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan mustaqil tijorat tashkiloti ekanligi qonun bilan belgilanmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi kooperativi kamida yetti nafar jismoniy va (yoki) yuridik shaxslardan iborat tarkibda tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.

Qonunda qishloq xo'jaligi kooperativining boshqaruv organlari, jumladan, umumiy yig'ilish, kooperativ boshqaruvi, kuzatuv kengashining aniq vazifalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zolikka kirish va undan chiqish, kooperativ a'zolarining huquq va majburiyatlari, ularning hisobini yuritish, pay badallarini to'lash bilan bog'liq normalar hujjatda o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, kooperativlarga qishloq xo'jaligi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish, shuningdek, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqi berilmoqda.

Qonunda davlat tomonidan agrar-iqtisodiy siyosat yordamida kooperativlar faoliyati uchun qulay muhitni ta'minlash, ularning faoliyatini rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi korxonalariga berilayotgan imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish, bank kreditlaridan va boshqa moliyaviy resurslardan foydalanishda ko'maklashish nazarda tutilgan. Kooperativlarni iqtisodiy, sotsial, hududiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash masalalariga ham alohida e'tibor berilgan.

Qonunning qabul qilinishi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi subyektlarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi, o'z tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi kooperativlarini tashkil etish, ularni professional va demokratik yo'l bilan boshqarish hamda qishloq xo'jaligi muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida rivojlanib kelayotgan zamonaviy kooperativlar faoliyati tartibga solinadi hamda ularning huquqiy kafolati yaratiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Bundan tashqari, senatorlar tomonidan "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Qonunda temir yo'l transporti tizimi zamonaviy bozor modeli talablariga muvofiq aks ettirilmoqda. Mazkur hujjat transport sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoit yaratish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va temir yo'l transporti tashuvlari sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan.

Qonunda "temir yo'l transporti" tushunchasi qayta ko'rib chiqilib, yangi tahrirda bayon etilmoqda. Bunda respublikaning temir yo'l transporti umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transportiga ajratilmoqda.

Umumiy foydalanishdagi temir yo'l infratuzilmasidan foydalanish tartibi va infratuzilma operatori faoliyati tartibga solinmoqda hamda tashuvchilarning huquq va majburiyatlari mustahkamlanmoqda.

Qonun bilan temir yo'l transportida bozor tamoyillari asosida erkin shakllantiriladigan tariflar aniq belgilanayotgan bo'lib, unga ko'ra

yuk vagonlarini taqdim etish, yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlari tariflarini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotidan voz kechilib, bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmi joriy etilmoqda.

Narxlar davlat tomonidan tartibga solinadigan mahalliy yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlarini (yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlarda yo'lovchilarni tashishdan tashqari) ko'rsatishdan ko'rilgan zararlarni Davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya qilish tartibi joriy etilmoqda.

Temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilishning aniq yo'nalishlari qonunda belgilanib, umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'llar hamda vokzallarni qurish va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish manbalari aniq qayd etilmoqda.

Qonun bilan temir yo'lda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasi, Transport vazirligi va Transport inspeksiyasi vakolatlari aniq belgilab berilmoqda.

Qonun sohada raqobat muhitini yaratish, fuqarolarning temir yo'l transportida harakatlanishida sifat darajasini oshirish, yo'lovchi va yuklarni xavfsiz tashishga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish va temir yo'l transporti tashuvlari sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan birga, Senatning ellik sakkizinchi yalpi majlisida "Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy

yo'nalishlari to'g'risidagi Bitimni (Dushanbe, 2023-yil 14-sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining samarali olib borilishi, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlanmoqda.

Yoshlarni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ochiq va sifatli ta'lim olishi, ijodiy, intellektual va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirishga alohida e'tibor qaratilib, ularning bandligini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ta'kidlanganidek, mazkur Bitimni qabul qilish tashabbusi 2022-yil 21-iyulda Cho'Ipbon-otada o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining IV Maslahat uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan.

Qonunda yoshlar ishtirokida omamaviy tadbirlar, loyihalar, yoshlar lagerlari, davlatlararo yoshlar aksiyalari, seminarlar, munozara klublari, davra suhbatlari, yoshlar forumlari va mintaqadagi yoshlar siyosatining dolzarb masalalariga bag'ishlangan konferensiyalarni tashkil etishga ko'maklashish kabi masalalar nazarda tutilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlar siyosati sohasida sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga imkoniyatlar yaratadi hamda mintaqadagi yoshlar o'rtasidagi yaqin hamkorlik aloqalarini yanada mustahk

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI HAR BIR INSON, OILA VA JAMIYAT FAROVONLIGIGA ERISHAMIZ



O'ZLIDEP

Bugun Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi siyosiy maydonda yetakchi kuch sifatida o'zini to'la-to'kis namoyon etib kelmoqda. Partiya o'zining "Va'da emas – natija, ertaga emas – bugun" euzu shiorini O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda kechayotgan izchil va hayotiy islohotlarni davom ettirish ma'nosida ko'rmoqda.

Binobarin, partiya mamlakatimizda izchil islohotlarning bosh maqsadi insonga, uning erkin hayoti, qadr-qimmatini va farovonligiga qaratilganligini e'tirof etadi va bu kurashda doim sobitqadam ekanini e'lon qiladi. O'zbekistonda qulay investitsiya va biznes muhitini yaratish, sanoatning yuqori tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, sanoatning raqobatdosh indeksleri bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan o'rinni egallashiga ko'maklashish partiyaning euzu maqsadlari hisoblanadi.

Shu ma'noda, partiya xalq farovonligi uchun 5 maqsad va 500 vazifani o'z ichiga olgan Saylovoldi dasturini ishlab chiqdi. Dasturdagi birinchi maqsad – Barqaror iqtisodiy o'sish orqali har bir inson, oila va jamiyat farovonligiga erishish bo'lib, bu partiyaning asosiy g'oyalardan biridir.

Tadbirkorlik oddiy yoki tor ma'nodagi tushuncha emas. Uning zamirida rivojlanish, taraqqiyot va odamlarning ertangi kunga intilishi mujassam. Qolaversa, tadbirkorlik jamiyat hayoti, davlat manfaatlarini mujassamlashtirgan, inson erkinligi va hayotiy maqsadlari ro'yobi yo'lidagi salmoqli kuch-qudratdir. Shunday salohiyatga egaki, u harakatlansa, shiddat olsa, yurtini ham, odamlarni ham, davlat iqtisodiyotini ham yuqori bosqichga, istiqbol va yorqin yo'llarga olib chiqadi. Bugun yurtimizda tadbirkorlar va ishbilamonlar uchun qulay biznes muhiti yaratilgani, barcha muammolari hal etilayotgani tufayli sohada sezilarli natijalar qayd etilmoqda.

O'zbekistonning dunyoning daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishi asosiy maqsadimiz ekan, bu ham, avvalo, tadbirkorlarga qulay imkoniyat, erkinlik, qulay biznes muhiti yaratish orqali amalga oshiriladi. O'ZLiDeP bu boradagi sa'y-harakatlarni davom ettirish yurt istiqboli uchun eng maqbul yo'l, deb hisoblaydi.

Biz 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni esa 4 ming dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz. Partiyamiz Saylovoldi dasturida bu vazifa qat'iy belgilab qo'yilgani esa hammamizga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekistonni tadbirkorlar mamlakatiga aylantiramiz. Eng muhimi, biz haqiqiy fidoiy, yuragida o'ti bor, elni, yurtini o'ylaydigan tadbirkorlar tarafdorimiz. Ularni qo'llab-quvvatlashdan hech qachon chekinmaymiz. Tadbirkorlar safini 3 million nafardan oshirish uchun barcha zarur chorani ko'ramiz. Faqat samarali mehnat, aql-idrok va sadoqat bilan o'zimiz ko'zlagan marralarga yetishimizga ishonamiz. O'ZLiDeP bu yo'lda doim sobitqadamdir.

Barqaror ish joylarini yaratib, kambag'allikni qisqartiramiz

Keyingi yillarda kambag'allikni qisqartirish, aholini kichik va xususiy biznesga keng jalb etish, shu orqali daromadini oshirish, farovon hayot kechirishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu ma'noda, yurtimizda kambag'allik ko'lamini ikki karra kamaytirish, eng avvalo, aholini tadbirkorlikka jalb qilishning mahallabay dasturlarini ishlab chiqish O'ZLiDeP Saylovoldi dasturida asosiy masala sifatida belgilangan.

Ushbu dasturlarni hayotiy va xalqchil tarzda tayyorlashda O'ZLiDeP "mahalla yetiligi" bilan ishlarni samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratadi. Maqsadimiz hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va umumiy bandlikni oshirishga hissa qo'shishdan iboratdir. Zotan, kichik va o'rta biznes rivoji aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga ko'mak beradi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 43-moddasida davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishni belgilangan bo'lib, shunga asosan partiyamiz o'z Saylovoldi dasturida tuman, shahar, mahallalarning alohida master-rejalarni ishlab chiqishni, tadbirkorlik ommaviy tus olishiga erishishni o'z vazifasi, deb biladi.

Ishsizlikning past darajasiga erishish uchun kasb-hunarga o'qitish ko'lami har yili ikki baravarga oshirilish, besh yilda kamida 1 million fuqaro bozori chaqqon kasblarga o'rgatiladi. Albatta, bunda har bir tuman va shaharda monomarkazlar tashkil etiladi. Partiyamiz bu muhim va kambag'allikni qisqartirishga eng maqbul usulni qat'iy amalga oshiradi. Bu yo'lda uchraydigan g'ov va to'siqlarni yengib o'tishda fidoiylik ko'rsatadi.

Maktab bitiruvchilariga davlat tomonidan kamida bir kasbni puxta egallashi uchun ko'maklashuvchi tizimni joriy etamiz. Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida imtiyozli kredit hajmlarini har yili 30 foizga oshirib borishni taklif qilamiz.

Partiyamiz Saylovoldi dasturidan o'rinni olgan vazifalardan yana biri ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirishdir. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ish bilan ta'minlab kelayotgan tadbirkorlarga mol-mulk va yer soligidan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Og'ir vaziyatga tushib qolgan fuqarolar uchun kredit ta'tillari berish tizimini joriy qilamiz. Xususiy bandlik agentliklari tizimini rivojlantirib, yangi foydalanishga kiritiladigan yerlarni ehtiyojmand aholiga bo'lib berish ishlarini davom ettirish tarafdorimiz.

Kredit resurslari tannarxini pasaytirish orqali kredit foizlarini 3-4 bandga kamaytirish choralarini ko'ramiz. Yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, iqtisodiyotga kredit qo'yilmalarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini oshirib, omonatlar hajmini 4 barobar ko'paytiramiz.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy masalalar ham partiya diqqat markazida. Taksi haydovchilaridan taksi kompaniyalar (elektron taksi xizmatlari) foydasiga ushlanadigan komissiya stavkalari miqdorlarini tartibga solish zarur, deb hisoblaymiz. Partiya tashabbusi ularning mehnat sharoitlarini yaxshilashga va daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Sodda, qulay va shuffon biznes muhitini yaratamiz

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini keskin qisqartirish, davlat mulkini xususiy lashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish, monopoli sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lib kelgan. Partiya tadbirkorlar faoliyatiga har qanday usulda aralashganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni, xususiy mulk daxlsizligini buzish, qonuniy talablarga rioya etmagan holda yer uchastkalarini olib qo'yish, mol-mulkka zarar yetkazish uchun jinoyi javobgarlikka tortish masalasini taklif etadi.

Albatta, tadbirkorlik qonun doirasida va uning talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, tadbirkorlikning barqaror rivoji uchun ayrim huquqbuzarliklarni dekriminalizatsiya qilish

ham muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan, biz tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyat turlarini kamaytirish, mazkur sohani yanada liberal lashtirish tarafdorimiz.

Partiya Saylovoldi dasturida suv xo'jaligi, ekologiya, energetika sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini kengaytirishni ilgari suradi. Yo'l qurilishi, gaz va elektr yetkazib berish sohalariga xususiy biznesni keng jalb etish tashabbusi bilan chiqamiz.

Kelgusi 5 yilda iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish bo'yicha barcha zaruriy choralarini ko'ramiz. Davlat ulushi mavjud korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

Biznes yuritishni yanada sodd lashtirish, 1000 ga yaqin byurokratik talablarni bekor qilish choralarini ko'ramiz. Litsenziyalarni sonini ikki baravarga kamaytiramiz, litsenziya bekor bo'ladigan 60 ta faoliyat uchun xabardor qilish tizimini joriy etamiz.

O'ZLiDeP o'z tashabbuslarida "yashirin

qat'i nazar, boylikning haddan tashqari konsentratsiyasiga adolatli soliq solish tizimini joriy qilish tashabbusi bilan chiqmoqda.

XDPning mazkur taklifi "yashirin iqtisodiyot"ning rivojlanishiga, korrupsiyaviy holatlarga, noqonuniy yo'llar orqali pullarni yuvish avj olishiga sabab bo'lishini anglash uchun unchalik chuqur bilim shart emas. Bunday jiddiy masalalarda yuzaki yondashib bo'lmaydi.

Mavzuning davomi sifatida yana bir partiyamizning soliq siyosati borasida ilgari surayotgan taklifi o'zinsiz ekanini ta'kidlash joiz. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi "solliqlar va boshqa qayta taqsimlash vositalari orqali aholi daromadlarini tenglashtirish siyosatini yuritish" g'oyasini ilgari surmoqda. Ochiqini aytganda, tahlil etmasdan, qabul qilingan tashabbus fuqarolar va tadbirkorlarimizning ishtiyogini so'ndiradi. "Qancha ko'p mehnat qilsam ham, harakata bo'lsam ham, imkoniyatlarim kengaymas ekan" degan umidsizlikni paydo

rivojlantirishning asosiy va istiqbolli tayanch nuqtasidan biri sifatida turizm sohasini tizimli rivojlantirish taklif etilmoqda.

Bu borada Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish, erishilgan yutuqlar, xalqaro e'tirof va sovirlar, yaratilayotgan qulay sharoit va imkoniyatlar xorijiy sayyohlarni, xalqaro tashkilotlarni bee'tibor qoldirayotgani yo'q.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 2023-yili Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari mamlakatimiz "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024-yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Ishonchimiz komilki, mazkur ijobiy natija va e'tiroflar, xorijda hech kimni befarq qoldirmasdan, mamlakatimizga sayyohlar oqimi va valyuta tushumlarini ko'paytirish,

quvvatga ega 100 ta agrologistika markazini tashkil etish bo'yicha ham ish olib boramiz. Partiyamiz organik mahsulot yetishtirayotgan fermer xo'jaliklariga soliq imtiyozlari joriy etish taklifini ilgari surmoqda. Bu har jihatdan to'g'ri va adolatli bo'ladi.

Tadbirkorlar hayotini kuzatib shu jihatga e'tibor qaratdikki, ular uchun "Agrosanoat klasterlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud va biz bu borada qat'iy ish olib boramiz.

Dehqon xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratamiz. Fermer va dehqonlarga imtiyozli kreditlarni ajratish, ularni qaytarish muddatlarini mavsumiylikdan kelib chiqqan holda belgilashni taklif qilamiz.

Biz qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishlariga mos holda rivojlantirish, tuproq va yulovlar degradatsiyasining oldini olish yuzasidan Milliy dastur qabul qilinishi tarafdorimiz. Xorijdan serhosil, kasalliklarga chidamli o'simlik urug'lari, ko'chatlarni olib kiritilishi yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash choralarini ko'ramiz.

Sohaga 15 milliard dollar investitsiyalar jalb etishni ta'minlash tashabbusini amalga oshirishga ko'maklashamiz.

Fermer va dehqonlarning huquqlarini himoya qilishda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining imkoniyatlarini kengaytirishni taklif etamiz.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini haqiqiy bozor aktiviga aylantirish, ijara huquqini bo'lib sotish, undan garov predmeti sifatida foydalanish uchun qonuniy bazani yanada takomillashtirish taklifi ilgari surilmoqda.

Yer masalasida har qanday qaror qabul qilishdan oldin, "yetti o'lchab bir kesish" zarur. Chunki yer – cheklangan resurs. Uning har bir qarichidan unumi va samarali foydalanish bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega. Bunga bog'liq masalalarga yuzaki yondashish ortiqcha xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Ekologik partiyasining Saylovoldi dasturidagi bir taklif shu jihatdan yetarli darajada asoslanmaganligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, "ekin maydoniga aylantirish imkoniyati bo'lmagan cho'l hududlardagi samarasiz yerlarni o'zlashtirish taqiqlanishi kerak". Bu yondashuv zamonaviy iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarni inkor qiladi.

Aslida, cho'l hududlarini o'zlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bugungi kunda tobora o'sib bormoqda. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda cho'l hududlarida quyosh elektr stansiyalari, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan texnologiyalar asosida agrofimlar yaratish bo'yicha yuqori samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. Samarasiz deb hisoblangan yerlar ham zamonaviy yondashuvlar orqali iqtisodiy manfaat keltirishi mumkin.

Shu sababli, Ekologik partiyamiz ushbu taqifiga yerdan foydalanish masalasida taqiqlarni emas, innovatsion yechimlarni joriy qilish ko'proq samara beradi, deb munosabat bildiramiz.

Eksport salohiyatini yanada yuksaltiramiz

Bugun O'zbekiston investorlar erkin va to'laqonli faoliyat olib borayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanilmoqda. Shu ma'noda, yurtimizga xorijiy investitsiyalarni kiritish hajmi oshib bormoqda. Tadbirkorlarimiz tomonidan eksport bozor mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi ham mutasils o'sib, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lmog'da.

Partiyamiz davlatimiz tomonidan bu yo'nalishda olib borilayotgan sa'y-harakatlarni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda, uni tizimli asosda davom ettirib, eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va eksport geografiasini kengaytirishda faol ish olib boradi.

50 ta nufuzli xorijiy brend bilan maxsus eksport zonalarini tashkil qilinishi, eksportchi tadbirkorlar uchun kredit foiz stavkalari kamaytirilishi borasida ish olib boriladi. Har bir tumanda kamida mingta ish o'rni yaratilgan 2 tadan yangi sanoat zonalarini tashkil qilindi, IT xizmatlari eksporti 5 milliard dollarga olib chiqildi.

Raqamli texnologiyalarga ixtisoslashtirilgan korxonalarining eksport faoliyatini jadallashtirish diqqatimiz markazida bo'ladi. Partiyamiz yangi O'zbekistonning porloq kelajagi, yurtimiz taraqqiyoti, davlatimiz rahbari olib borayotgan islohotlarni va xalqimizning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'lda qat'iy bel bog'lagan yusufiy kuch!

G'oya va qarashlarimiz tadbirkorlar, ishbilamonlar, butun xalqimiz sa'y-harakatlari bilan hamohang va ularni qo'llab-quvvatlashga doim tayyormiz!

Abdullo ASLONOV,
O'ZLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya
qo'mitasi raisi o'rinbosari,
Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.



iqtisodiyot" illati bilan biznesga to'siq yaratmaydigan vositalar orqali murosasiz kurashishni o'zining asosiy vazifasi, deb hisoblaydi.

Partiya samarasiz korxonalar davlatdan qo'shimcha yordam olmasdan, xususiy sektor kabi "o'z aravasini o'zi tortishi" tarafdori ekan ham milliy iqtisodiyotda sof'olom bozor munosabatlari shakllantirishga turki bo'ladi.

Partiya tomonidan "Kapital bozorini rivojlantirish to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish, kriptoaktivlar bozorini rivojlantirish va sohadagi qonunchilikni liberal lashtirish, xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish bo'yicha bildirilgan takliflar O'zbekistonda moliya bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish va unda kichik biznes ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunni takomillashtirishda faol ishtirok etamiz.

Barqaror, sodda va adolatli soliq siyosati tarafdorimiz

Biz soliq ma'murchiligi tizimini sodd lashtirish, barcha tadbirkorlar uchun soliqni to'lash borasida adolatli va teng sharoitlar yaratish, soliq stavkalarining o'zgarishini ta'minlovchi siyosat yuritilishi yo'nalishida ish olib boramiz.

Shu jihatdan aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami daromad miqdori chegarasini BHMning 5 ming barobari darajasida belgilashni taklif etamiz.

Soliq hisobotlarini topshirishda hozirga qadar ba'zi joylarda "sendan ugina, mendan bugina" qabilidagi holatlar uchrab turibdi. Hisobot davri kelganda tadbirkorlarning yuragi bezillaydi. Shuning uchun biz bu illatlarga qarshi keskin kurashib, soliq hisobotida inson omili ta'sirini keskin kamaytirish choralarini ko'ramiz.

Partiyamiz Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlardagi tadbirkorlik subyektlarining QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishi uchun ayrim talablarni bekor qilishni taklif etadi. Xususan, onlayn nazorat kassa mashinalarining dasturiy ta'minoti davlat tomonidan yuritilishini joriy etish orqali tadbirkorlar ulardan foydalangan uchun undiriladigan har oylik to'lovni maqbullashtirish tarafdorimiz. Bu soliq idoralari va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, odamlarimizda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, kichik bo'lsa-da, o'z biznesini yo'lga qo'ygan holda moddiy farovonlikka erishishiga ko'maklashish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Ana shunday taraqqiyparvar islohotlarga urg'u berilayotgan bir paytda ayrim siyosiy partiyalar, aniqrog'i, Xalq demokratik partiyasi o'zining asoslanmagan qarashlari va g'oyalari bilan omma e'tiborini o'ziga qaratishga urinmoqda. Masalan, ular daromad va ularning manbalaridan

qiladi. Zotan, ko'p daromad olgan shaxslarni ko'p daromad olgani uchun soliq orqali "jazolash" yoki jamiyatdagi ijtimoiy yukni ularning zimmasiga yuklash adolatsizlikdir.

Sanoat tarmoqlarini rivojlantiramiz

Yurtimizda ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Endilikda biz sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, mehnat unumdorligini ikki baravar oshirish, 115 milliard dollarlik yirik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha zarur choralarini belgilaymiz. Sanoatda tannarxni kamaytirish siyosatini yuritamiz.

Mamlakatda sanoat qancha taraqqiy etsa, ish o'rni ko'payadi, aholining oliyavi byudjeti mustahkamlanadi, kambag'allik chekinadi. Buning uchun bizda imkoniyatlar juda keng va undan unumli foydalanish uchun barcha kuch va salohiyatni ishga solishga kirishamiz. Sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rni yaratish uchun astoydil ish olib boramiz.

Kichik sanoat zonalarida investitsiya majburiyatini bajargan tadbirkorlarimizga yer uchastkalarini xususiy lashtirishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratamiz. Salohiyatli tadbirkorlarga kichik va yoshlar sanoat zonalaridan 10 yilgacha bo'lib to'lash imtiyozini bilan yer ajratilishi tarafdorimiz.

Partiyamizning maqsadlaridan biri – O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish hajmini yiliga 1 million donaga yetkazishdir. Bu tashabbus elektoratimiz talablariga javob beradi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mamlakatimizni mintaqaviy "to'qimachilik xabi"ga aylantirish maqsadida to'qimachilik sohasidagi tadbirkorlarga har tomonlama ko'mak beramiz.

Sanoatni rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot sohasi muhim rol o'ynaydi. Shu bois raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etishiga huquqiy va moliyaviy sharoitlarni yaratishga oid dasturlar qabul qilinishini taklif etamiz. Shuningdek, partiyamiz "chip sanoati", sun'iy intellekt va nanotexnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilgan. Biz sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, raqamli ma'lumotlarni qayta ishlashning tamoyillari, standartlari va qoidalarini belgilashga alohida e'tibor qaratamiz.

Turizm – mamlakat iqtisodiyotining drayveri

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadlilik bo'yicha dunyoda yuqori o'rinnlarda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rini yaratish imkonini beradi. Shu bois partiyamiz Saylovoldi dasturida ham iqtisodiyotimizni

pirovordida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning mavjud turizm salohiyati bundan-da yuqori iqtisodiy rivojlanish potensialiga ega. Ammo bizda hali turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalana olinayotgani yo'q. Kelayotgan sayyohlarga qulay shart-sharoit yaratishda hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Bu esa tadbirkorlardan sohani rivojlantirish bo'yicha tizimli izlanish va oqilona yechimlar ishlab chiqishni talab etadi.

Yangi O'zbekistonda sayyohlik industriyasi kengayishi uchun rivojlangan mamlakatlarda tajribasi asosida hududlarning turizm master-rejalarni ishlab chiqamiz. Agroturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida "Agroturizm – 2030" strategiyasini ishlab chiqishni muhim deb hisoblaymiz. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orolbo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinishiga ko'maklashamiz.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani rivojlantirish muhim, deb hisoblaymiz.

Bu borada davlat-xususiy sherikligi asosida transport, yo'l qurilishi, suv xo'jaligi kabi ustuvor sohalariga 14 milliard dollar investitsiya jalb etishga har tomonlama ko'maklashiladi.

Yirik aeroportlarni modernizatsiya qilinishi, xususiy aviakompaniyalar soni yanada ko'payishi bo'yicha choralar ko'riladi.

Internet infratuzilmasi ham alohida e'tiborida bo'ladi. Qishloq va ovullarni internet bilan to'liq qamrab olib, uning tezligini 10 karra oshiramiz.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaymiz va agrar sohani rivojlantiramiz

Bugun hayot oldimizga qo'yayotgan ulkan masalalardan biri oziq-ovqat xavfsizligiga erishishdir. Bu masalaning dolzarbligi shundaki, bugun butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham suv tanqisligi, ekologik beqarorlik, cho'llanish, degradatsiya va global isish kabi omillar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

Ayniqsa, suv tanqisligi, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishlari fermer va dehqonlarni qiyin ahvolda solib qo'yimoqda. O'ZLiDeP yangi Saylovoldi dasturida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish yo'lidagi islohotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan olinadigan o'rta daromadni oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Shu bois 1 gektar yerdan olinadigan daromadni 5 ming dollarga yetkazishni ta'minlash muhim vazifamizdir.

Foydalanilmayotgan maydonlarni o'zlashtirish hisobiga 300 ming gektarda intensiv bog' va uzumzorlar bargo etsak, bu ham yaxshigina daromad keltiradi. Mahsulotni qayta ishlash va eksportga chiqarish imkoniyati ham yanada oshadi. Bunda mahsulotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichini qamrab olgan agrologistika markazlari juda muhim. Shuni e'tiborga olgan holda, 2,5 million tonna

Oʻzbekiston Respublikasining
QONUNI“Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi
Qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shu bilan birga bandlik sohasidagi islohotlarning samaradorligini oshirish hamda aholini ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashga va uning bandligiga koʻmaklashishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada tartibga solish maqsadida qonunchilikda yangi normalarni aks ettirish, shuningdek maʼmuriy islohotlar doirasida bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini oʻzgartirish hamda qonun hujjatlariga ushbu organlarning va ular tasarrufidagi tashkilotlarning rasmiy nomlarini aniqlashtirishga taalluqli tegishli oʻzgartirishlar kiritish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga ish qidirayotgan shaxslarning mehnat organlariga ortiqcha hujjatlar taqdim etishiga yoʻl qoʻyilmasligini, bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiyalari taqdim etish mexanizmi takomillashtirilishini nazarda tutuvchi, shuningdek ish beruvchilar tomonidan mahalliy mehnat organlariga boʻsh (vakant) ish oʻrinlari mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni, xodimlarning ishdan boʻlgʻusi ozod etilishi haqidagi axborotni har oyda elektron tarzda taqdim etish shartlarini belgilovchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Bundan tashqari Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining nomlanishi aniqlashtirilmogʻda, shuningdek oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlangan shaxslar aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifasiga kiritilmoqda.

Ushbu Qonun ishga joylashtirish boʻyicha aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirishga, shu yoʻnalishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga, ish beruvchilar tomonidan mahalliy mehnat organlariga tegishli axborotni taqdim etish jarayonini soddalashtirishga, mahalliy mehnat organlariga murojaat qilayotgan fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab etilishining oldini olishga, shuningdek xodimlarning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini kuchaytirishga hamda aholining davlat organlariga nisbatan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrda qabul qilingan “**Aholi bandligi toʻgʻrisida**”gi OʻRQ-642-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 10, 595-modda; 2021-yil, № 4, 287-modda, 4-songa ilova; 2022-yil, № 3, 216-modda, № 5, 464-modda, № 6, 570-modda, 10-songa ilova; 2024-yil, № 2, 111-modda) quyidagi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin:

1) 3-moddaning:

toʻrtinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

beshinch xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

oʻn yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«**mehnat organlari** – Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, shuningdek Qoraqalpogʻiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari (bundan buyon matnda hududiy mehnat organlari deb yuritiladi), tumanlarning (shaharlarning) kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari (bundan buyon matnda mahalliy mehnat organlari deb yuritiladi);»;

2) 6-moddaning toʻrtinchi xatboshisidagi “kasb-hunar kollejlari” degan soʻzlar “kollejar” degan soʻz bilan almashtirilsin;

3) 7-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisidagi “davlat boshqaruvi organlarining” degan soʻzlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

4) 8-modda:

birinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismining:

birinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshisidagi “davlat boshqaruvi organlarining” degan soʻzlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

5) 9-modda:

nomidagi «Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi» degan soʻzlar «**Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi»** degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismining birinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

6) 10-modda birinchi qismining:

ikkinchi xatboshisidagi “davlat boshqaruvi organlarining” degan soʻzlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

7) 11-modda:

nomidagi «Davlat boshqaruvi organlarining» degan soʻzlar «**Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining»** degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismining birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari”;

ikkinchi qismidagi “Davlat boshqaruvi organlari” degan soʻzlar “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 12-modda birinchi qismining toʻqqizinchi xatboshisidagi “kasb-hunar kollejlari” degan soʻzlar “kollejar” degan soʻz bilan almashtirilsin;

9) 13-modda:**birinchi qismining:**

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“boʻsh (vakant) ish oʻrinlari mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni har oyda, shuningdek xodimlarning ishdan boʻlgʻusi ozod etilishi toʻgʻrisidagi axborotni har bir xodimni koʻrsatgan holda, ular ishdan ozod etilishdan kamida ikki oy oldin «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali elektron tarzda mahalliy mehnat organlariga taqdim etish»;

sakkizinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Boʻsh (vakant) ish oʻrinlari mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ish beruvchi tomonidan mahalliy mehnat organiga har bir hisobot oyining oxiridagi holatga koʻra «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali elektron tarzda taqdim etiladi. Boʻsh (vakant) ish oʻrinlari mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Boʻsh (vakant) ish oʻrinlari milliy bazasiga kiritiladi»;

10) 15-moddaning ikkinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 18-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Xodimlarni ommaviy ravishda ishdan boʻshatish mezonlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) xodimlarining soni yigirma nafar va undan ortiq boʻlgan har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotni (uning alohida boʻlimmasini) tugatish;

b) xodimlar sonining (shtatining) quyidagi miqdorda: oʻltiz kalendar kun ichida ellik nafar va undan ortiq xodimning; oʻtmish kalendar kun ichida ikki yuz nafar va undan ortiq xodimning;

toʻqson kalendar kun ichida besh yuz nafar va undan ortiq xodimning qisqarish»;

12) 19-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Subsidiya bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun vazirliklar va idoralarning mablagʻlari hisobidan koʻrsatiladigan moliyaviy koʻmakdir.

Subsidiyalarning turlari va ularni taqdim etish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi»;

13) 22-moddaning birinchi qismidagi “davlat boshqaruvi organlari” degan soʻzlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 23-moddaning:

birinchi qismidagi “davlat boshqaruvi organlariga” degan soʻzlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

beshinch qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek mahalliy ijro hokimiyati organlari ish oʻrinlarini tashkil etishga boʻlgan ehtiyojning dashtabki parametrlari asosida ish oʻrinlari tashkil etishga doir davlat buyurtmasini har yili 1-noyabrdan kechiktirmay koʻrib chiqadi va tasdiqlaydi hamda uni Aholi bandligiga koʻmaklashish davlat dasturi loyihasiga kiritish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligiga hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuboradi”;

oltinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

yettinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 24-modda:

ikkinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

beshinch qismining birinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

oltinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi **yettinchi va sakkizinchi qismlar** bilan toʻldirilsin:

«Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi ssuda berilishini quyidagi hollarda rad etishga haqli:

ushbu moddaning beshinchi qismida koʻrsatilgan hujjatlar ariza beruvchi tomonidan toʻliq hajmda taqdim etilmaganda;

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda notoʻgʻri yoki buzib koʻrsatilgan maʼlumotlar mavjud boʻlganda.

Ssuda berish rad etilgan taqdirda, ariza beruvchiga rad etish sabablari koʻrsatilgan xabarnoma bir ish kuni ichida yuboriladi»;

yettinchi qismi toʻqqizinchi qism deb hisoblanisn;

16) 25-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 29-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Ish qidirayotgan shaxs sifatida roʻyxatga olish mahalliy mehnat organining masʼul xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

Ish qidirayotgan shaxslar mahalliy mehnat organiga pasportini yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasini yoxud shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etgan holda murojaat qiladi.

Ish qidirayotgan shaxslarning ish staji, maʼlumoti (mavjud boʻlgan taqdirda), ish haqi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar hamda boshqa maʼlumotlar mahalliy mehnat organi tomonidan masʼul davlat organlari va tashkilotlardan mustaqil ravishda, shu jumladan “Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali soʻrab olinadi.

Ish qidirayotgan shaxslar mahalliy mehnat organlariga kasbi yoki kasbiy malakasi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni yoki uning koʻchirma nusxasini (kasbi yoki kasbiy malakasi mavjud boʻlgan taqdirda) taqdim etishi mumkin.

Zarur boʻlganda, mahalliy mehnat organi elektron soʻrov yuborish orqali masʼul tashkilotlardan quyidagi maʼlumotlarni olishi mumkin:

tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalaridan – tavsiya etilayotgan mehnatning xususiyati va sharoitlari toʻgʻrisidagi xulosani

(nogironligi boʻlgan shaxslarga nisbatan);

sogʻliqni saqlash muassasalaridan – tibbiy xulosalarni va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni (sogʻligʻining holatiga koʻra mehnat faoliyatida cheklolvar mavjud boʻlgan shaxslarga nisbatan);

jazoni ijro etish muassasalaridan – shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotnomani (jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nisbatan);

fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridan – bolalarining tugʻilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomalarining koʻchirma nusxalarini (qaramogʻida bolalari boʻlgan shaxslarga nisbatan);

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining tuman (shahar) boʻlimlaridan – boqimandalar mavjudligi hamda qonunchilikda belgilangan nafaqa va pensiyalarni olmayotganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotnomani (bolalaridan tashqari boshqa boqimandalari boʻlgan shaxslarga nisbatan).

Zarur boʻlganda, mahalliy mehnat organi murojaat etgan shaxs haqiqatan fermer (dehqon) xoʻjaligi aʼzosi ekanligi toʻgʻrisida Oʻzbekiston fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashidan axborot soʻrab olishi mumkin»;

18) 30-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qonunchilikda belgilangan tartibda bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiyalari olganda”;

19) 32-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi “davlat tashkilotlariga” degan soʻzlardan keyin “(bundan «Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni 3-moddasining birinchi qismida va ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan lavozimlar mustasno)» degan soʻzlar bilan toʻldirilsin;

20) 34-moddaning ikkinchi qismi “Tashkilot” degan soʻzdan keyin “(bundan «Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni 3-moddasining birinchi qismida va ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan lavozimlar mustasno)» degan soʻzlar bilan toʻldirilsin;

21) 36-moddaning ikkinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

22) 37-moddaning yettinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

23) 38-moddaning ikkinchi qismi:

ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz ota yoki ona (ularning oʻrmini bosuvchi shaxs), shuningdek koʻp bolali oilalardagi ota-onalar (ularning oʻrmini bosuvchi shaxslar)”;

uchinchi xatboshisidagi “kasb-hunar kollejarini” degan soʻzlar “kollejlarni” degan soʻz bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi **oʻninch xatboshi** bilan toʻldirilsin:

“oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlangan shaxslar”;

oʻninch xatboshisi oʻn birinchi xatboshi deb hisoblanisn;

24) 39-modda sakkizinchi qismining ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz ota yoki ona (ularning oʻrmini bosuvchi shaxs), shuningdek koʻp bolali oilalardagi ota-onalar (ularning oʻrmini bosuvchi shaxslar) uchun – bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qoʻshib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega boʻlgan ish oʻrinlari”;

25) 47-moddaning oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga hamda shaxsiy tomorqa yer uchastkalarini rivjolantrishga qaratilgan, qonunchilikda belgilangan tartibda bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiyalarni olish imkoniyatini”;

26) 48-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qonunchilikda belgilangan tartibda bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiya olganda”;

27) 49-modda:

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Mehnat shartnomasi quyidagi asoslar boʻyicha bekor qilingan taqdirda, ish qidirish davrida oʻrtacha oylik ish haqi ishdan boʻshatish nafaqasi hisobga olingan holda, biroq koʻpi bilan ikki oyga saqlanib qolishi xodimlar uchun kafolatlanadi:

xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi;

xodim ish beruvchi bilan birga ishlash uchun boshqa joyga koʻchishni rad etganligi;

xodim sogʻligʻining holatiga koʻra, tibbiy xulosaga muvofiq sogʻligʻining holati boʻyicha oʻziga qarshi koʻrsatma mavjud boʻlmagan boshqa ishga oʻtishni rad etganligi yoki ish beruvchida tegishli ish mavjud emasligi;

texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish oʻzgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati oʻzgarganligi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmi qisqarganligi;

tashkilotning (uning alohida boʻlimmasining) oʻz taʼsischilari (ishtirokchilari) qaroriga koʻra tugatilganligi yoxud taʼsis hujjatlari bilan shunga vakolatli boʻlgan yuridik shaxs organining qaroriga koʻra tugatilganligi;

bajarayotgan ishiga malakasi yetarli emasligi oqibatida noloyiq ekanligi;

shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanganligi; shuning tashkilotni tugatish toʻgʻrisidagi qarori qonuniy kuchga kirganligi»;

oltinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tashkilotlardan ishdan boʻshatilgan hamda mahalliy mehnat organining yoʻllanmasi boʻyicha ishga qabul qilingan shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga doir xarajatlarini kompensatsiya qilish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan ish beruvchiga har bir xodim uchun olti oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining toʻrt baravarigacha miqdorda subsidiya ajratilishi mumkin”;

quyidagi mazmundagi **yettinchi qism** bilan toʻldirilsin:

«Xodimning kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan oʻtganligini tasdiqlovchi hujjatning koʻchirma nusxasini ish beruvchi oʻquv kursini yakunlanganidan keyin besh ish kuni ichida mahalliy mehnat organiga taqdim etmagan hollarda, mahalliy mehnat organi xodimni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga va uning malakasini oshirishga doir xarajatlarining

oʻrmini qoplash uchun ajratilgan hamda ish beruvchi tashkilotga toʻlab berilgan subsidiyalarni qaytarish choralarini koʻradi»;

yettinchi va sakkizinchi qismlari tegishincha **sakkizinchi va toʻqqizinchi qismlar** deb hisoblanisn;

toʻqqizinchi qismidagi “Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi oʻzgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyati oʻzgarishiga olib kelgan ish hajmlari qisqarganligi” degan soʻzlar “Texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish oʻzgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati oʻzgariganligi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmi qisqarganligi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

28) 55-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qonunchilikda belgilangan tartibda bandlikni ragʻbatlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiya olganda”;

29) 59-moddaning ikkinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan soʻzlar “Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

30) 60-moddaning:

toʻrtinchi qismidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

“Aholi bandligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

(Davomi. Boshlanishi 1, 4-betlarda).

35) 72-moddaning matnidagi “davlat boshqaruvi organining” degan so'zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

36) 73-modda: beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “Stipendiya ishsiz deb e'tirof etilmagan shaxslarga to'lanmaydi”; quyidagi mazmundagi oltinchi – o'ninchi qismlar bilan to'ldirilsin:

«Stipendiya ishsiz shaxsga buyruq asosida ta'lim muassasasiga qabul qilingan kundan e'tiboran ta'lim muassasasi tomonidan hisoblanadi va to'lanadi.

Joriy oydagi stipendiya to'lovi o'tgan oy uchun amalga oshiriladi.

To'liq bo'lmagan kalendar oy uchun stipendiyani to'lash chog'ida stipendiya mazkur stipendiya to'lanishi kerak bo'lgan ushbu kalendar oydagi kunlar soniga va to'liq kalendar oydagi o'qish kunlari soniga mutanosib miqdorda to'lanadi.

To'liq kalendar oy uchun stipendiya to'lovi ushbu kalendar oydagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi. Bunda, agar o'qish davri kalendar oy tugaguniga qadar tamomlangan bo'lsa, stipendiya ta'lim muassasasining o'qishni tamomlash yoki o'qishdan chetlashtirish to'g'risidagi buyruq chiqarilgan sanagacha hisoblanadi va to'lanadi.

Stipendiyani olish davrida ishsiz shaxs kasal bo'lgan taqdirda stipendiyani ishsiz shaxsning qarindoshlari (otasi, onasi, eri (xotini), voyaga yetgan bolalari) yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomaga asosan ishsiz shaxsning boshqa ishonchli shaxslari tomonidan olishga yo'l qo'yiladi;

37) 75-modda: birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

38) 76-modda: nomidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “davlat boshqaruvi organlarining” degan so'zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi to'g'risidagi nizom hamda uning faoliyati Reglamenti O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri tomonidan tasdiqlanadi”;

yetinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

39) 80-moddaning uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

40) 82-moddaning: birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi qismi: birinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston

Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisidagi o'zbekcha matnidagi “ishonchsiz yoki noto'g'ri” degan so'zlar “noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n oltinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda ariza beruvchi akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi mansabdor shaxsning harakatlari (harakatsizligi) ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega”;

41) 83-moddaning yettinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

42) 84-moddaning: to'rtinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

43) 85-moddaning: birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

yetinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

44) 86-moddaning: birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

45) 87-moddaning: ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismi birinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “Belgilangan talablar va shartlar malakani baholash markazi tomonidan buzilganligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmasi ular tomonidan bajarilmaganligi faktlari aniqlangan holdarda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi malakani baholash markazining akkreditatsiyasi amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish yoxud uning akkreditatsiyasini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli”;

beshinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

46) 88-moddaning uchinchi qismidagi “davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, ish beruvchilar birlashmalari bilan birgalikda” degan so'zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat

organlari va boshqa tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, ish beruvchilar birlashmalari bilan birgalikda” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

47) 89-modda: ikkinchi qismidagi: ikkinchi xatboshisidagi “davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari” degan so'zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tanlagan tashkilotlar tomonidan – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan buyurtmasiga muvofiq”;

to'rtinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

48) 90-modda: birinchi qismidagi birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi”;

uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

49) 91-moddaning birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

50) 92-moddaning birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

51) 93-moddaning: ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi: beshinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

yetinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'ninchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

52) 94-moddaning: beshinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n beshinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

yigirma birinchi xatboshisi chiqarib tashlansin; yigirma ikkinchi – o'ttizinchi xatboshilari tegishincha yigirma birinchi – yigirma to'qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

yigirma uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin: “qonunchilikka muvofiq aholi bandligiga ko'maklashish maqsadida boshqa turdagi subsidiyalarni berish”;

yigirma to'qqizinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

53) 95-moddaning uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

54) 97-moddaning:

nomidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining, Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

55) 98-moddaning ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

56) 99-moddaning: nomidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

birinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

oltinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, Moliya vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining, Iqtisodiyot va moliya vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

57) 103-moddaning: ikkinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

58) 104-moddaning beshinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

59) 114-modda: ikkinchi qismidagi o'n birinchi xatboshisidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

60) 117-moddaning matnidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, boshqa davlat boshqaruvi organlari” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

61) 121-moddaning matnidagi “O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

62) 122-moddaning uchinchi xatboshisidagi “davlat boshqaruvi organlari” degan so'zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shohri, 2024-yil 27-sentyabr № O'RQ—967

Uchrashuv

Parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirishga kelishib olindi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi boshchiligidagi parlament delegatsiyasi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari, shuningdek, parlamentlararo xamda hukumatlararo strategik muloqot tizimi yo'lga qo'yilganligi alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda istiqbolida iqtisodiyot, investitsiya, ta'lim, madaniyat va turizm yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Tomonlar hududlararo aloqalar kengayib borayotganligini qayd etib, ikki mamlakatning mahalliy vakillik organlari o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish borasidagi vazifalarga e'tibor qaratdi.

Muhokama so'ngida parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirishga kelishib olindi.

Yuksak hurmat va e'tibor ifodasi

Oliy Majlis Senatida 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan maktabgacha, maktab ta'limi muassasalari xodimlari, “O'zbekiston Qahramoni” unvoni va boshqa yuksak davlat mukofotlariga ega pedagoglar, uzoq yillar tizimda faoliyat yuritgan ustozlar, ta'lim fidoyilari va mas'ullari ishtirokida uchrashuv tashkil qilindi.

Oliy Majlis Senatida



Qayd etilganidek, ushbu sana dam olish kuni sifatida qonunchilikda belgilab qo'yilgan bo'lib, bu ham yurtimizda ustoz va murabbiylarga yuksak hurmat hamda ehtirof ifodasidir. Qolaversa, so'nggi davrda ta'lim tizimiga, xususan, o'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritildi.

Bugun o'qituvchi va murabbiylar doimiy e'tiborda, ularning kasbiy tajribasini oshirish choralari ko'rilmogda va madaniy hordiq chiqarishi uchun turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ishirokchilar Oliy Majlis Senati hamda senatorlar ish faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Yuqori kayfiyat ulashgan muloqot davomida Senat qo'mitalari raislari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rahbariyati o'qituvchi va murabbiylarni kasb bayrami bilan

tabriklab, ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida sohada ro'y bergan muhim o'zgarishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Muloqot davomida pedagoglar tizimidagi ijobiy o'zgarishlar ustoz-murabbiylarning o'z kasbiga munosabati va mas'uliyatini yanada oshirishga katta turki bergani va bu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlashdi.

Uchrashuv so'ngida ishtirokchilar maktabgacha va maktab ta'limi tizimi sohasiga doir qonunchilikda kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi bilimlarini yanada boyitish imkoniga ham ega bo'ldi.

“Xalq so'zi”.

Dolzarb masalalar keng muhokamalar markazida bo'ldi

Oliy Majlis Senatining ellik sakkizinchi yalpi majlisida bir qator dolzarb masalalar keng muhokamalar markazida bo'ldi. Senatorlar ularning ayrimlari haqida quyidagicha fikr bildirishdi.

Munosabat

Mintaqamiz yoshlarini birlashtiruvchi muhim hujjat

Ravshanbek ALIMOV,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi:

Bugun yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor juda yuqori. Sababi, hozirgi innovatsion sharoitlarda yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning ochiq va sifatli ta'lim olishlarini kafolatlash, ijodiy, intellektual, sport va boshqa yo'nalishlarda salohiyatini to'la namoyon etishlariga ko'maklashish hamda bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Yalpi majlisda ko'rib chiqilgan "Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi Bitimni (Dushanbe, 2023-yil 14-sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ana shu maqsadga yo'naltirilganligi bilan e'tibordir.

Bitim 2022-yil 21-iyulda Cho'Ipnotada o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining IV Maslahat uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusiga bilan ilgari surilgan bo'lib, mintaqamizdagi barcha davlatlar tomonidan imzolangan.

U mintaqamiz yoshlarini birlashtirish va o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim hujjat hisoblanadi.

Ushbu Bitimda yoshlar ishtirokida ommaviy tadbirlar, ilg'or loyihalar, yoshlar lagerlari, davlatlararo aksiyalar, seminarlar, munozara klublari, davra suhbatlari, forumlar va mintaqadagi yoshlar siyosatining dolzarb masalalariga bag'ishlangan konferensiyalarni tashkil etishga ko'maklashish kabi masalalar nazarda tutilgan.

Bitimning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
* yoshlarni Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotiga keng jalb qilish;
* ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirish;
* barkamol yosh avlod tarbiyasiga doir dasturlarni ishlab chiqish;
* ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi yoshlar o'rtasida ochiq va sifatli ta'lim olishni ta'minlash;

- * ilg'or tajriba almashish, ilmiy-innovatsion hamkorlikni kuchaytirish;
- * yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun olimpiya, paralimpiya hamda milliy sport turlarini targ'ib qilish;
- * iste'dodli yoshlar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- * mintaqada xalqaro ta'lim yoshlar turizmini rivojlantirishga ko'mak berish va yoshlar auditoriyasi uchun mo'ljallangan turizm infratuzilmasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- * imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga doir choralarni ko'rish;
- * tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Bitimda mintaq davlatlari bilan hamkorlikda yoshlarda



tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish, startap loyihalarni qo'llash va mustaqil daromad topishga ko'maklashish hamda o'zaro tajriba almashish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar ham ko'zda tutilgan bo'lib, mintaqamiz yoshlarining salohiyatini yuzaga chiqarishda ayni muddaodir.

Kooperativga doir tushunchalar mazmuni ochib berilmoqda

Bahodir TOJIYEV,
Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi:
– So'nggi yillarda qishloq xo'jaligining barcha tarmoqida to'liq bozor mexanizmlariga asoslangan yangicha tizim yaratilib, erkin raqobat muhiti shakllantirilmoqda. Yaratilgan qulay agrobiznes muhiti natijasida 830 dan ortiq agrosanoat

klasterlari, 90 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari va 190 tadan oshiq kooperativlar samarali faoliyat olib borayotir.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi qonun bu boradagi faoliyatni kuchaytirishda huquqiy asos bo'ladi. Zero, uning maqsadi qishloq xo'jaligi kooperativlarini tuzish, kooperativ a'zolariga qabul qilish, nazorat qilish, tashqi audit, boshqarish, qayta tashkil etish va tugatish borasidagi, shuningdek, davlat va kooperativlar o'rtasidagi hamda mulkiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda vakolatli yoki saylangan vakil, dividend, zaxira jamg'armasi, investitsiyalar kirituvchi kooperativ a'zosi, ishonchli shaxs, pay badali, pay, pay fondi, qishloq xo'jaligi kooperativi va uning a'zosi, qo'shimcha pay badali, qo'shma qishloq xo'jaligi kooperativi kabi asosiy tushunchalar mazmuni ochib berilayotganini alohida ta'kidlamochimiz.

Yana bir yangilik sifatida kooperativning firma nomi va joylashgan yeriga oid norma belgilanayotganini keltirish mumkin. Unga ko'ra, kooperativ o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'ladi, kooperativning joylashgan yeri uning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyi bo'yicha belgilanadi.

Kooperativ kamida yetti nafar jismoniy va (yoki) yuridik shaxslardan iborat tarkibda, qo'shma kooperativ esa kamida uchta kooperativdan iborat tarkibda tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutilayotganini ham muhim yangiliklardan biri sifatida keltirsa bo'ladi.

Bu qonun qishloq xo'jaligi kooperativiga doir munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishdan tashqari, ishlab chiqaruvchilarning hamkorligini rivojlantirishda, o'z tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi kooperativlarini ochishda, ularni professional va demokratik yo'l bilan boshqarishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ASOSIY YO'NALISH VA IMTIYOZLARNING MUSTAHKAM HUQUQIY KAFOLATI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid bir qator qonun loyihalari muhokama qilindi.

Dastlab deputatlar tomonidan "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddama-modda ko'rib chiqildi. Qonun loyihasi bilan kosmik faoliyatning asosiy prinsiplari, davlat siyosatining muhim yo'nalishlari, soha uchun mas'ul organlar, ularning vakollatlari o'zaro taqsimlanib, vazifalari aniqlab belgilab berilmoqda.

Shuningdek, loyihada kosmik faoliyatni amalga oshirishning asosiy maqsadlari, Vazirlar Mahkamasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining kosmik faoliyat sohasidagi vakollatlari aks ettirilaypti.

Bundan tashqari, kosmik fazoni faqat tinchlik maqsadlarida tadqiq qilish, ta'lim tashkilotlari, shu jumladan, yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida kosmik faoliyat yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, kosmik suratlarni qayta ishlash, tahlil qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida qonunbuzarlik holatlarini aniqlashga ko'maklashish ushbu sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'z ifodasini topmoqda.

Deputatlar fikricha, qonun loyihasi kosmik sohani tartibga solish va huquqiy maqom berilishiga hamda kosmik faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni boshqarishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi xalq vakillari tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, yurtimizda ipakchilik tarmog'ini rivojlantirishga, tirik ipak qurti parvarish qilishda kasanachilikni qo'llab-quvvatlashga va ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur tarmoqda faoliyat bilan shug'ullanishni va yuqori sifatli ipak mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini berish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan Soliq kodeksining

vaqtinchalik soliq imtiyozlari to'g'risidagi 483-moddasiga yer sharoitida pilla yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan, kasanachilar mehnatiga haq to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lar ijtimoiy soliqdan ozod qilinishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilmoqda.

Qolaversa, ipakchilik sohasida ozuqa bazasi sifatida foydalaniladigan tuzlorlar bilan band bo'lgan yer uchastkalari uchun yer solig'ini xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga 0,1 ko'effitsiyent qo'llagan holda to'lash taklif etilyapti.

Munozaralarda qonun loyihasining qabul qilinishi ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, xususan, tarmoqda ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlarini ko'paytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Majlisda, shuningdek, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihasi atroficha muhokama qilindi.

Deputat Sanjar Hamidullayev kreativ sanoat tarmog'ini jahon iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan yangi sohalardan biri ekanini qayd etib, bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, bu sektorni davlat iqtisodiyoti asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilayotganini ma'lum qildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur qonun loyihasida kreativ iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari belgilanmoqda. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotning respublika iqtisodiyotiga hissasini aniqlash maqsadida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish ham nazarda tutilaypti.

Majlisda deputatlar tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan qonun loyihasi ushbu sohani yanada taraqqiy ettirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli ekanini alohida ta'kidlandi.

yaratishga, malakali mutaxassis sifatida zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadr bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

G'ayrat ABDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



– Davlatimiz rahbari ochiq muloqot chog'ida iqtidorli yoshlarni seleksiya qilish tizimi yangi bosqichga olib chiqilishini muhim yo'nalishlardan biri sifatida qayd etdi. Buning uchun xalqaro darajada fan olimpiadalariga tayyorlash markazi tashkil qilinishi ayni muddao bo'ladi. Ochiq'ini aytish kerak, iqtidorli o'quvchilarni saralab olish, ularning bilim darajasini oshirishda fan olimpiadalarining o'rni nihoyatda katta. So'nggi yillarda ana shunday xalqaro fan tanlovlarida munosib ishtirok etayotgan yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Bundan, albatta, har qancha faxrlansak arziydi. Eng muhimi, bu kabi xalqaro olimpiada g'oliblarining iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish nazarda tutilgan yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqish va intilishlarini yanada mustahkamlaydi.

Aytish mumkin, bu yoshlarning o'z iqtidorini ro'yog'ba chiqarishlari uchun barcha shart-sharoit bor. Uchrashuv chog'ida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi stipendiyaning tashkil etish tashabbusi bildirilgan bo'lajak pedagoglarni qovontirish shubhasiz. Bu, o'z navbatida, yigit-qizlarning ushbu sharafli kasbga bo'lgan qiziqishini, intilishini yanada oshiradi.

Qayd etish joiz, yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish, ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar uchun tarbiyaga oid raqamli kontentlar yaratish rivojlanib borayotgan tezkor zamonada juda muhim. Shu bois mamlakatimiz yetakchisi ta'limning ajralmas qismi bo'lgan tarbiya va odob-axloq masalalariga ham alohida e'tibor qaratib, bu bo'yicha Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti yangidan tashkil etilganini ma'lum qildi. Albatta, bu yosh avlodini milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, bugun ta'lim-tarbiya sohasida, o'qituvchi va murabbiylarimiz, farzandlarimiz hayotida yangi davr boshlanmoqda, deysing barcha asosimiz bor. Ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish, borgan o'qitargan amal qilish esa hammamizning burchimizdir.

"Xalq so'zi".

YANGI TASHABBUSLAR ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kecha Pedagogik mahorat milliy institutida o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqot qilib, mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga to'xtalib, ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha 7 ta yo'nalishda muhim vazifalarni belgilab berdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari mazkur tashabbuslarning ahamiyati, hayotiy zarurati, amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan o'z munosabatini bildirishdi.

Aks sado

Gulshana XUDOYOROVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori maktab bo'lsa, maktabni maktab qiladigan kuch, shubhasiz, o'qituvchidir. Shu bois mamlakatimizda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta imkoniyat va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Xususan, oxirgi yillarda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingani ushbu tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etish, uni tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va uni xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlashgan holda olib borishga keng imkoniyatlar yaratadi.



Ushbu hujjatga muvofiq, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Davlatimiz rahbari o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqot davomida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bilan birga, ayrim masalalarga ham alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, Abdulla Avloniy nomidagi institut pedagoglarda kasb mahoratini oshirishga mas'ul bo'lishi, institutning 12 ta hududiy markazini zamonaviy qiyofaga keltirish va jihozlash uchun yaqin 3 yilda byudjetdan har yili 50 milliard so'm ajratilishi belgilandi.

Bu jarayonda malaka oshirishda vazirlik – malaka oshirish markazi – maktab va bog'chani bog'laydigan vertikal tizim yo'lga qo'yilishi ayni muddao bo'ldi, deb o'ylayman. Joylarda tayanch maktablari va bog'chalar tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tashkil etilishi, shubhasiz, o'qituvchilarning o'z ustida

muntaam ishlashi, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishiga zamin yaratadi.

Bilamizki, so'nggi yillarda iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalar, uslublar va xorij tajribasini keng joriy etish, ularni o'qitish va tarbiyalashda yaxlit tizim yaratish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, multaqo yangicha mazmun va shakliga ega bo'lgan Prezident maktablari hamda ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilindi va bu tizim tez orada o'zini to'la oqladi. Fikrimiz isbotini qisqa fursat ichida uning ko'plab o'quvchilari dunyoning nufuzli olimpiadalarida ishtirok etib, sovrinli o'rinni ko'lga kiritayotganini misolida ham ko'rish mumkin.

Tarixiy muloqotda ushbu maktablar tajribasi ommalashtirilishi, bu yo'nalishda ko'plab umumta'lim muassasalarida Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablardagi baholash tizimini joriy qilish boshlangani qayd etildi. Shuningdek, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimida esa yagona uzviy zanjirni yo'lga qo'yish uchun pedagogik ta'lim klasterlari tashkil qilindi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bilan birga, pirovardida har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashda multaqo noyob tizim bo'ladi.

Ochiq muloqotda ko'tarilgan dolzarb masalalar, bildirilgan tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar samaradorligini oshirish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratamiz.

Muqaddas O'RAZALIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Mamlakatimizda har yili 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida keng nishonlanadi, bu kunda nafaqat pedagoglar, balki barcha

sohadagi ustozlarga hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. Bu bejiz emas. Chunki ustoz va murabbiylarning farzandlarimizni komil insonlar etib tarbiyalashdagi, ularni to'g'ri fikrlash, murakkab vaziyatlarda qat'iy irodaga, mustahkam pozitsiyaga ilm va tajriba yo'li orqali ega bo'lishlarini ta'minlashdagi hisssasi beqiyosdir.



Shu ma'noda aytganda, so'nggi yillarda yurtimizda ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, Prezidentimiz tashabbusi bilan o'qituvchilik kasbining nufuzi va obro'sini yuksaltirish yo'lida tizimli islohotlar olib borildi. O'qituvchilarning oylik maoshlari muttasil oshirilib, ularning mehnat sharoitini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o'rtacha 2,5 baravarga ko'tarildi.

Davlatimiz rahbari tarixiy muloqot chog'ida muallimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini rag'batlantirish davom etirilishini alohida urg'uladi. Bu borada muhim vazifalar belgilab berildi. Masalan, kelgusi o'quv yilidan boshlab, xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish yo'lga qo'yiladi va yuqori ball olgan pedagoglar qo'shimcha ustama oladi.

Qolaversa, pedagoglarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sohaga oid tanlovlarni o'tkazish, sihat-salomatligini mustahkamlash, fidoyi, jonkuyar, bilimdon o'qituvchilarni e'zozlash, ular haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida ezgu maqsadlar ilgari surildiki, ularning barchasi ziyo ulashuvchi kasb egalari mehnatini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, ushbu soha rivojiga bo'lgan ana shunday e'tibor maktablarda o'quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan o'zgartirishga, o'qituvchilar tarkibini yaxshilashga xizmat qiladi.

Abdumalik AKRAMOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Keyingi yillarda mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sog'lom, yuksak ma'naviyatli yoshlarni

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir N. Ostonov.
Musahhif S. Isomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.25 Topshirildi — 02.35 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi